

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
DIN ISHLARI BO‘YICHA QO‘MITASI

MILLATLARARO MUNOSABATLAR VA XORIJIY
MAMLAKATLAR BILAN DO‘STLIK ALOQALARI QO‘MITASI

O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI

MILLATLARARO VA DINIY BAG‘RIKENGLIK – SAMARALI HAMKORLIKNING MUHIM OMILI

xalqaro konferensiya materiallari to‘plami

2023-yil, 16-noyabr, Toshkent (O‘zbekiston)

Toshkent – 2023

Millatlararo va diniy bag‘rikenglik – samarali hamkorlikning muhim omili / Tuzuvchi: M.Alimova, O.Ernazarov. – Toshkent: O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi, 2023. – 352 b.

Mas’ul muharrir:

Z.Islomov – *filologiya fanlari doktori, professor*

Tahrir hay’ati:

**M.Alimova, R.Urazova, R.Isakdjanov, O.Ernazarov,
M.Abdullayeva, D.Turdiyeva**

Tuzuvchilar:

M.Alimova – *tarix fanlari nomzodi, dotsent*

O.Ernazarov – *tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

Taqrizchilar:

M.Is’hoqov – *tarix fanlari doktori, professor*

Sh.Madayeva – *falsafa fanlari doktori, professor*

Ushbu to‘plam O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasida “16 noyabr – xalqaro bag‘rikenglik kuni” munosabati bilan har yili an‘anaviy tarzda o‘tkaziladigan “Millatlararo va diniy bag‘rikenglik – samarali hamkorlikning muhim omili” mavzusidagi xalqaro konferensiyasi materiallarini o‘zida mujassam etgan. To‘plamda O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasi, Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasi, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi mutaxassislari hamda respublikamizdagi mavjud diniy tashkilotlar va madaniyat markazlari rahbarlari tomonidan taqdim etilgan materiallar jamlangan.

To‘plamga kiritilgan materiallardagi raqam, fakt va ma’lumotlar uchun mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar.

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi ilmiy va o‘quv-uslubiy kengashining 2023-yil 29-oktyabrda 3-son majlisi qarori bilan nashrga tavsia etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasining 2023-yil 28-noyabrda 03-07/9015-son xulosasiga asosan tayyorlandi.

© Toshkent, 2023.

qat'i nazar, teng huquq va erkinliklarini, ularning qonun oldida tengligini ta'minlash alohida e'tiborga olingan.

So'nggi yillarda O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va din sohasida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar mamlakatda ushbu sohalarda yangicha yondashuv va strategik maqsadni birlashtirgan tizim shakllanishiga xizmat qildi. Mazkur tizimning muvaffaqiyati esa yurtimizda tinchlikni saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, barqaror rivojlanish uchun zamin yaratmoqda. Zero, zamonaviy davlatning bosh maqsadi jamiyatda hamjihatlik va barqarorlik, inson huquq va erkinliklarining samarali himoya qilinishini ta'minlashdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondining mablag'lari hisobidan davlat grantlari va ijtimoiy buyurtmalar taqdim etadi hamda milliy madaniy markazlar negizida yoshlar bo'linmalarini tashkil etishga ko'maklashadi.

O'zbekistonning rivojiga salmoqli hissa qo'shgan milliy madaniy markazlar faollarini davlat mukofotlari bilan taqdirlanadi va ularga faxriy unvonlar beriladi. Yangilanayotgan O'zbekistonda millatlararo munosabatlar va chet mamlakatlar bilan do'stona aloqalarni yanada rivojlantirishga, respublikamizda yashab turgan turli millat va elat vakillarining tili, madaniyati, an'analari va urf-odatlarini saqlash va rivojlantirish sohasida O'zbekiston Respublikasining davlat siyosatini samarali amalga oshirish uchun qo'shimcha ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar yaratishga xizmat qiladi.

* * *

Ne'matullo Nasrullayev,

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Islom tarixi va manbashunosligi IRCICA
kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi*

MOVAROUNNAHR DINIY-IJTIMOIIY HAYOTIDA KO'P FOYDALANILGAN ASAR

XIII asr oxiri – XIV asr boshlari Movarounnahr shaharlari Chingiz avlodlaridan bo'lgan mo'g'ul xonlarining qo'lida saqlanib qolgani kuzatildi. Bu davrda ijtimoiy va madaniy ahvol bir tomondan mintaqaning kichik-kichik quvvatsiz davlatlarga bo'linishi, boshqa tomondan esa, har bir yirik

hukmdor doim butun Movarounnahrni bo'ysundirib, uni bitta hokimiyat ostida birlashtirishga intildi. Bu holat o'sha davr muarrixlari tomonidan yozilgan birlamchi manbalarda atroflicha o'z ifodasini topdi.

Mintaqa ilmiy muhitida Buxoro shahri muhim ahamiyat kasb etdi va yirik ilmiy-ma'rifiy markazlardan biriga aylandi. U yerda asosan hanafiylik keng tarqalib, odamlar mazhabning o'rtamiyonalik, bag'rikenglik va hamjihatlik tamoyillari asosida yashab keldilar. Mintaqada tafsir, hadis, aqida, fiqh, tarixnavislik ilmlari rivojlanib, mazkur sohalariga oid ko'plab nodir manbalar yaratildi.

Bu davrda buxorolik olim Ubaydulloh ibn Mas'ud Sadr ash-shari'a fiqh ilmida samarali ijod qildi. Olimning hayoti va ijodi yurtimiz uchun nihoyatda murakkab va nisbatan kam o'rganilgan davriga to'g'ri keldi. Chunki, Movarounnahrda davlat boshqaruvi allaqachon mo'g'ullar qo'liga o'tib, ilm-fan va madaniyat ancha orqada qolgani sababli u yashagan davr, ijtimoiy-madaniy hayot haqidagi ma'lumotlar nisbatan kam uchraydi.

Ubaydulloh ibn Mas'ud Sadr ash-shari'alar oilasi vakili sifatida hanafiy fiqhining ustoziga aylandi. U bobosining tarbiyasida kamol topib, ilmi hikmat, kalom va tabiatga oid fanlarni o'zlashtirib, ayniqsa, fiqh ilmida yetuk alloma sifatida tanildi va hanafiy mazhabining atoqli hamda sermahsul olimlaridan biri sifatida qator shogirdlar ham chiqarib samarali ijod qildi.

Ubaydulloh ibn Mas'ud ibn Toj ash-shari'a Buxoriyning kalom va fiqhga oid "At-Tavzih fi halli g'avomiz at-tankih", "Muqaddima al-arba'a", "Kulliyatul fiqh", "An-Nuqoya fi masoil al-Hidoya", "Sharh Muxtasar al-Viqoya", hadis ilmiga oid "Al-Mustatoba", mantiq ilmiga mansub "Ta'dilul ulum", tilshunoslikka tegishli "Al-Vishoh fil maoniy val bayon", arab grammatikasiga oid "Sharhul Fusulil xamsin", "Fi ilmis sarf", "Rislatu fi ilmil Aruz", islom tarixiga oid "Rislatu ta'vili qissati Yusuf", fatavo janrida "Tankih al-uqud", "Fatavoi Movarounnahr" nomli asarlari bizgacha yetib kelgan.

Sadr ash-shari'a usuli fiqh, kalom, mantiq, falsafaga oid mo'tazila va ash'ariylarning qarashlarini o'rganib, o'zining qator asarlari orqali ularni ilmiy asoslab berishga harakat qildi. Masalalar isbotida Sharq olamiga keng tanilgan hanafiy mazhab sohiblaridan Dabbusiyy, Halvoksiy, Saraxsiy, Bazdaviy, Samarqandiy kabi va boshqa olimlar tomonidan tasnif etilgan

original manbalarga tayandi. Shuningdek, masalalarga kirishishda boshqa mazhab olimlarining qarashlarini ham nazardan chetda qoldirmadi.

Ubaydulloh ibn Mas'ud silsilali ulamolar oilasiga mansub bo'lib, otasi va bobosidan ilm tahsil qilgan. Uning aqliy va naqliy ilmlar xususan, fiqh ilmi, usul va daqiq sohibi ekanidan, asarlari hozirgacha davr ulamolari nazdida maqbul hamda keng tarqalgan. O'z davrida Sadr ash-shari'a va uning barcha ajdodlari ilmu fan arboblari sifatida katta hurmat va izzat bilan yashaganlar.

Ubaydulloh ibn Mas'udning ijod faoliyati aynan mo'g'ullar istilosi davriga to'g'ri kelganligi, o'sha davrda mo'taziliy, qadariy, jabariy, qarmatiy kabi turli botil oqim vakillarining ta'siri kuchaygani uchun ham, muallif o'z asarlarini yengil va tez qabul qilib, uni mustahkam o'zlashtirilishiga imkon yaratgan. Chunki, mo'g'ullar davrida ilm va ma'rifatning susayishi odamlarni birlashtiruvchi omillarga ham o'z ta'sirini o'tkazgan edi. Lekin, Ubaydulloh ibn Mas'ud kabi faqihlar o'z an'analari va urf-odatlariga sodiq turib, xalqning diniy-ma'rifiy hayoti va ularning ongini oshirish sari doim intilganlar. Tabiiy ravishda ayni davr va holat uchun furu' al-fiqh to'g'risida ixtiloflardan yiroq va mukammal asarlarga ehtiyoj sezilgan. Mazkur davrda Ubaydulloh ibn Mas'udning "Muxtasar al-Viqoya" nomli asari yozildi. Muallif bu asari bilan avvalo, o'sha davrdagi ba'zi ixtiloflarga javob bergan bo'lsa, ikkinchidan matnni oddiy mahalliy xalq ham tez va oson tushuna olishini e'tiborga olgani tabiiy.

Hanafiy mazhabi qoidalariga amal qilib yozilgan ushbu asar, o'zidan avval yozilgan manbalarni to'ldirishi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Darhaqiqat, hanafiylik Markaziy Osiyo xalqlari e'tiqod qiladigan keng tarqalgan mazhab bo'lib, hozirgi kunda sunniylikdagi e'tiqod qiluvchilar sonining ko'pligi bo'yicha hanafiy mazhabi yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Zero, hanafiylikka xos bag'rikenglik tamoyillari uning islom olamida keng yoyilishiga zamin yaratdi.

Yuqorida aytib o'tilgan omillar asarning aholi orasida ko'p mutolaa qilinishi va musulmon dunyosiga keng tarqalishiga sabab bo'lgan. Uning omma orasida keng yoyilib, fiqh bilan bog'liq doimiy dasturlardan biriga aylanishi, el orasida asarga bag'ishlangan nazmiy baytlar bitilishiga ham sabab bo'lgan edi⁷⁰.

⁷⁰ Qarang: ЎзР ФА ШИ Қўлёзма: 3975, 8149, 3739, 3944.

Ubaydulloh ibn Mas'udning "Muxtasar al-Viqoya" asari haqida ko'plab olimlar o'zlarining ijobiy fikrlarini bildirganlar. Asar Movarounnahr diniy-ijtimoiy hayotida ko'p foydalanilgan asarlar jumlasidan bo'lgani, uning madrasalarda o'rta va yuqori bosqich talabalariga ta'lim dasturidan o'rin olgani bilan ham belgilanadi. Shuningdek, uning sodda va ravon tilda bitilgani, musulmonlar hayotida kerak bo'ladigan ibodat masalalariga bag'ishlangani, ko'pchilikning yaxshi ko'rgan asariga aylanganini ko'rsatadi.

"Muxtasar al-Viqoya"ning boshqa turdosh asarlardan o'ziga xosligini ko'rsatuvchi yana bir jihati, uning joylashish tartibidir. Ubaydulloh ibn Mas'ud masalalarga nihoyatda mas'uliyat bilan yondashib, ularni alohida fasl va boblarga ajratib yengil bayon etgan. Zero, muallif ibodatning mukammal bo'lishida avvalo u amallarning qaysi turlaridan ekanini bilish ahamiyatli hisoblanishini nazardan qochirmagan. Mazkur asarni qiyoslashda ko'zga tashlangan yana bir muhim jihat, "Hidoya" asarida zikr etilgan qator mavzular "Muxtasar al-Viqoya"da umuman keltirilmagan. Zotan, bu jihat uning muxtasar shaklda yoritilgani bilan bog'liq.

Muallifning qisqa jumalalarda ko'p ma'noni qamrab olishi, so'zlarning eng mosrog'ini topib ishlatishi, tilga og'ir keladigan so'zlarni iste'mol qilishdan saqlanishi asar tasnifidagi o'ziga xos xususiyatdir. Ubaydulloh ibn Mas'udning arab tili bilan bog'liq ilmlarni puxta egallagani, ibodat masalalarini yoritishda hanafiy qoidalariga muvofiq ravishda yorita olgani ham, uni mo'tabar kitoblar qatoridan joy olishini ta'minlagan.

"Muxtasar al-Viqoya" tasnif uslubida ham boshqa fihiy asarlarga o'xshash jihatlar mavjud. Asarning turdosh asarlar bilan qiyosiy tahlili shuni ko'rsatdiki, matndagi fihiy masalalar va ularning yechimlariga asos sifatida Abu Hanifa va uning shogirdlari qarashlari olingan.

"Muxtasar al-Viqoya" asari an'anaga muvofiq "Basmala" bilan boshlangan. Matnning "Bismillah" bilan boshlashi Muhammad (s.a.v.) ning "Allohning ismi bilan boshlanmagan har-bir ish kesikdir" mazmundagi hadislari bilan hujjatlangan. "Bismillah"ning fazilati haqida va uni sharhlab, turli davrlarda qator asarlar yozilgan. "Bismillahir rohmamir rohim"ni aytish ilmiy tilda "Tasmiyya" yoki "Basmala" deb aytiladi. Asarning kirish qismida hamd, na't va salovatlar berilgan.

Har qanday manbaning birinchi jumlasini nihoyatda ahamiyatlidir. Asarning bu kabi ta'kid ma'nosi bilan boshlanishi, undagi mavzularni

yodda olib qolish zarurligiga ishora qiluvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu hol fiqhiy va grammatik asarlarda keng uchraydi. Uning bu ko'rinishi badiiy va she'riy uslublarda ham namoyon bo'ladi. Avvalgi jumla asarning muvaffaqiyatini ta'minlovchi kalit hisoblanadi, shu bois bu xususiyat faqatgina adabiy asarlarga xos bo'libgina qolmay, balki ilmiy asarlarga ham taalluqlidir⁷¹.

Asarning xattotlar tomonidan tinmay ko'chirilgani, matn mavqei yuqori ekaniga dalolat etadi. Unda muallif iqtidorini namoyon etgan o'rinlar juda ko'p. Shu bois, bu asar asrlar osha o'z qiymatini yo'qotmagan holda hozirgi kunimizda ham yuksak qadrlanib kelinmoqda. Bu bilan Ubaydulloh ibn Mas'ud madaniy, ma'rifiy hayotga o'zining munosib hissasini qo'shdi.

“Muxtasar al-Viqoya”ning madrasada ko'chirilgan nusxalaridan biri O'zR FA Sharqshunoslik instituti fondida saqlanadi. Bu nusxa asarning matn tarjimai bo'lib, hijriy 1286-yilda ko'chirilgan⁷². Mazkur fondga yana shunday madrasalarda kitobat etilgan qo'lyozmalarga juda ko'plab duch kelish mumkin.

Insonning ilmiy tafakkuri orqali yaratilgan bu nodir kitoblarni ko'chirish, saqlash bo'yicha katta ishlar amalga oshirila boshlandi. Xattotlar tomonidan ko'chirilgan qo'lyozmalar asosan buyurtmaga ko'ra bajarilib, ular orasida nodir va qimmatbaholari ham bo'lgan. Ular bilan bir qatorda, kundalik ehtiyojda foydalanish maqsadida uy, masjid, madrasa va xonaqohlarda mutolaa qilish uchun nisbatan oddiyroq ko'rinishdagi qo'lyozmalar ham tayyorlangan.

Kitoblarga bo'lgan kuchli talab orqali xalqimizning kitobxonlik madaniyati yuksak darajada bo'lganiga ishonch hosil qilamiz. Kitoblarni o'qish va o'qitishga bo'lgan muhabbat va ularni qadrlash kelajak avlodlarga yetkazish kabi omillar o'lkamizda qo'lyozmalarning ko'plab nusxalarda saqlanib qolishiga sabab bo'lgan. Bu asarlarning ko'pchiligi o'rta asrlarda yashab o'tgan olimlarning asarlariga yozilgan sharh, hoshiya, ta'liq va izohlar ekanligini qayd etib o'tish o'rinli. XIII-XIV asrlarga kelib, ijod

⁷¹ Атоуллох Хусайний. Бадойиъ ас-санойиъ. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1981. – Б. 250-252.

⁷² ЎзР ФА ШИ фонди. Р:7757. Қўшимча маълумот учун яна қаранг: Насруллаев Н. Фикҳи Кайдоний. Каталог. – Тошкент: Elmundo-press, нашірѐти, 2010. – 321 б.

ahlining qadimdan yaratilib kelingan shoh asarlari o‘rniga, asosan, ularning tarjima, sharh va hoshiyalari bilan ko‘proq kifoyalangani seziladi.

* * *

Laziza Alidjanova,

*O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Dinshunoslik va jahon dinlarini qiyosiy o‘rganish
UNESCO kafedrasida katta o‘qituvchisi,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

O‘ZBEKISTONDA DINLARARO BAG‘RIKENGLIKNING IJTIMOIY ASOSLARI

XXI asr atrofda tahlilali zamon hukm surgan bir paytda O‘zbekistonda 130 dan oshiq turli madaniyat va dinga mansub aholi vakillari o‘zaro ahil-inoq yashab kelmoqda. “Bag‘rikenglik” tushunchasi yagona Vatan, bir zamin va bir hududda turli millat va elatga daxldor kishilarning, turli xil diniy e‘tiqodli insonlarning orzu-umid, maqsad va niyatlar yo‘lida hamfikir va hamjihat bo‘lib yashashni anglatadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev xalq qalbida tobora chuqur va mustahkam o‘rin egallayotgan bag‘rikenglik tamoyili to‘g‘risida shunday deydi: “Bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko‘p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo‘stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma‘nodagi bag‘rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo‘lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi”.

O‘zbekiston Respublikasida mustaqillik e‘lon qilinishi bilan mamlakatning oliy maqsadi bo‘lmish demokratiyaga keng yo‘l ochildi. Mamlakat dunyoviy davlat yo‘lini tanladi, jamiyatdagi barcha dinlar teng huquqli deb tan olinib, diniy e‘tiqodlari uchun yetarlicha imkoniyatlar yaratib berildi. O‘zbekistonning diniy hayoti uchta tamoyil bilan ajralib turadi: diniy plyuralizm – har bir kishi o‘zining diniy e‘tiqodiga ega ekanligi; diniy bag‘rikenglik – har xil e‘tiqodda bo‘lgan fuqarolarning o‘zaro hurmati va tinchliksevarligi va dinlararo muloqot – mamlakatda mavjud bo‘lgan konfessiyalar orasidagi samarali munosabatlardir.

MUNDARIJA

Uyg'un G'afurov. So'z boshi	5
Muzaffar Kamilov. Tabrik so'zi	7
Sodiq Toshboyev. Tabrik so'zi	10
Rustam Qurbanov. Tabrik so'zi	12
Davronbek Maxsudov. Din va davlat munosabatlari: diniy-tarixiy asoslar hamda bugungi voqelik	15
Zohidjon Islomov. Yangi O'zbekistonda dinshunoslik: tadqiqotlar va tahlillar	20
Mahfuza Alimova. Dinlararo totuvlik va bag'rikenglik – davr talabi	24
Marina Munira binti Abdul Mutalib, Roslizawati Mohd Ramly. Malayziya Federatsiyasida musulmon-xristian munosabatlari	27
Mitropolit Vikentiy. O'zbekistondagi rus pravoslav cherkovi: 150 yillik yaqin qo'shnihilik munosabatlari	35
Arkadiy Isaxarov. Barqaror rivojlanishni ta'minlashda bag'rikenglikning roli	38
Yeji Matsulevich. Dinlararo va millatlararo bag'rikenglikni mustahkamlashda katolik cherkovining o'rni	41
Sergey Ternovoy. Dinlararo tinchlikparvarlik madaniyatini rivojlantirish	43
Jasur Najmiddinov. O'zbekistonda Dinlararo muloqot va bag'rikenglik markazini tashkil etish istiqbollari va xalqaro tajriba	48
Najmiddin Nizomiddinov. Bhaktiy ta'limotida "insonga muhabbat, bu – tangriga sadoqat"	53
Ne'matulloh Muhamedov. Insonparvar g'oyalar: mintaqa olimlari ijodida do'stlik va bag'rikenglik	56
Ali Rafet Özkan. Turkiya Respublikasida diniy bag'rikenglik madaniyatining aks etishi	61
Azamat Toshev. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi – jamiyatda millatlararo bag'rikenglikni mustahkamlashning amaliy dasturi	67
Saodat Davlatova. O'zbekistonda millatlararo totuvlik va bag'rikenglik muhiti rivojining yangi bosqichi	72

Saidakbar Agzamxodjayev. O‘zbekiston Respublikasida millatlararo va dinlararo bag‘rikenglikni mustahkamlashning huquqiy asoslari	76
Doniyor Muratov. Yoshlar tarbiyasida hadislarning o‘rni.....	80
Ramziddin Isakdjanov. Ibn Sino qarashlarida bag‘rikenglik tamoyillari	83
Komiljon Shermuxamedov. Yangi O‘zbekistonda bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik munosabatlari.....	87
Abdurasul Abdullayev. Yoshlar tarbiyasida diniy bag‘rikenglikning o‘rni	90
Odiljon Ernazarov. Yaponiya davlat siyosatida bag‘rikenglik tamoyilining aks etishi	93
Gulandom Subxonova. Markaziy Osiyo xalqlarining mushtarak bag‘rikenglik tamoyillari	98
Shuxrat Toxtiyev. Markaziy Osiyo shialarining kelib chiqishi va ularning o‘ziga xos xususiyatlari	102
Gulnora Xudoyberganova. Xristian monaxligida ibodat atributlari mezonlari tavsifi.....	106
Muxlisa Mirzayeva, Mohira Abdullayeva. Konfessiyalararo muloqot va diniy bag‘rikenglikning tarixiy ildizlari: Saljuqiylar davlati misolida.....	109
Fazilat Qo‘ysinova. Jamiyat hayotida radikalizmning shakllanishi va rivojlanish omillari	113
Serikbay Usenov. O‘zbekistonda millatlararo totuvlik va bag‘rikenglik tamoyillari	116
Ne‘matullo Nasrullayev. Movarounnahr diniy-ijtimoiy hayotida ko‘p foydalanilgan asar.....	118
Laziza Alidjanova. O‘zbekistonda dinlararo bag‘rikenglikning ijtimoiy asoslari.....	123
Aziza Nosirova. Dinlararo bag‘rikenglik madaniyatini mustahkamlashda diniy ksenofobiya profilaktikasining o‘rni	126
Guldane Avezdurdiyeva. Mamlakatlar o‘rtasida do‘stlik aloqalarini rivojlantirishda milliy madaniy markazlarning asosiy vazifalari.....	129
Zafar Faxriddinov. Diniy bag‘rikenglik – ezgu maqsadlar in‘ikosi	134
Mumin Mirzo Abdupattayev. Muhammad ibn Abdulkarim Shahrisoniy ilmiy merosida yahudiylik va xristianlikka munosabat	137

Barno Shamsematova. Talabalarga diniy atamalarni o'rgatish – madaniy va ilmiy rivojlanish omili	140
Raxmatulla Jabbrov. Yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida milliy madaniy markazlarning o'rni	142
Dilshodakhon Muminova. Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik – ozod va obod Vatan qurishning muhim sharti	145
Dilbar Khasanova. Rasmiy ta'lim orqali yoshlarda bag'rikenglik va insonparvarlik qadriyatlarini tarbiyalash.....	148
Ra'no Urazova. Ijtimoiy bag'rikenglikning jamiyatdagi barqarorlik va taraqqiyotni ta'minlashdagi o'rni.....	151
Dilafruz Turdiyeva. Malayziya islom taraqqiyoti departamentining mamlakatda diniy-dunyoviy muvozanatni saqlashdagi o'rni	154
Nilufar To'ychiyeva. G'arbda neosufizm g'oyasining tarqalish tendensiyalari	158
Elyor Alimkulov. Me'moriy obida va inshootlarda diniy-mistik ramzlarning ifodalanishi	162
Muhabbatxon Agzamova. Islom manbalarida diniy bag'rikenglik masalasini yoritilishi	167
Lola Azimova. O'zbekistonning bag'rikenglik siyosati	170
Jo'rabek Sodiqov. Imom Moturidiy asarlarida diniy bag'rikenglikka oid qarashlar	173
Bahodir Daminov. Markaziy Osiyoda diniy mutaassiblik vujudga kelishining ayrim jihatlari	176
Janna Dalakyan. Yoshlarning diniy-axloqiy madaniyatiga oid konseptual masalalar	180
Sayyora Atadjanova. Yosh avlodda ma'naviy-milliy qadriyatlarni tarbiya qilishda dinning o'rni.....	183
Dilfuza Zokirova. Globallashuv jarayonida milliy qadriyatlarning o'rni va bag'rikenglik me'yorlari.....	186
Xusniddin Xolmatov. XX asr boshlarida Turkiston madrasalari faoliyatining tugatilishi	189
Aydos Yakupov. Janubiy Orol hudidida ilk davlatlarning tashkil topishi va rivojlanishi	193
Nurilla Turambetov. Dinshunoslik bo'yicha talabalar bilimining baholashda raqamli texnologiyalardan foydalanish ahamiyati	196

Shohruh Jumayev. Farg‘ona viloyatidagi Yevangel-xristian baptistlar jamoasi tarixi va faoliyati.....	200
E‘zozaxon Mirdjalalova. XIX-XX asrlar rus islomshunoslari tomonidan arab-musulmon madaniyati masalalarining yoritilishi: liberallik, institutlar va tarix.....	203
Abror Hafizov. Oliy ta‘lim talabalariga ingliz tilini o‘rgatishda bag‘rikenglik madaniyati ahamiyati	207
Jasurbek Abduqodirov. O‘zbekiston Respublikasining bugungi rivojlanishi – dinlararo hamjihatlikning huquqiy kafolati sifatida	210
Nodir Shomirzayev. Diniy reabilitatsiya instituti shakllanishining ijtimoiy-tarixiy omillari	215
Nozim Mamataxunov. IX-X asr Samarqand ijtimoiy-siyosiy va ma‘naviy-madaniy hayotida iyodiy olimlarning o‘rni.....	221
Muxriddin Jo‘rayev. Movarounnahrda ilk hadis ilmi halqalari (Buxoro misolida).....	228
Saidumarxon Burgutxonov. “Aum sinrekyu” sektasi harakatlarining Yaponiya va Rossiya davlatlari xavfsizligiga tahdidi va oqibatlarini	232
Xalilulloh Saidakbarov. Samoniyilar davrida ilm-fan rivoji va bag‘rikenglik siyosati.....	236
Toxir Evadullayev. Qur‘on va sunnatda bag‘rikenglik talqini	238
Muxlisabonu Ishanxonova. “Bahs al-matolib va xass al-tolib” asarida Livandagi bag‘rikenglik an‘analari aks etishi	243
Sherzodjon Umaraliyev. XII-XIII asrlarda Movarounnahr faqihlari tomonidan usul al-fiqh ilmining o‘rganilishi	247
Soxiba Kadirova. XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkistonda yahudiy etnik guruhining shakllanish tarixi (Yevropa yahudiylari misolida).....	251
Maftuna Rajabova. “Tolerantlik” fenomeni va uning zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida tutgan o‘rni	255
Orif Ahmedov. Sin davri Xitoy musulmonlarining xayriya ishlaridagi faoliyati	263
Abdulahad Abdumutalibov. Globallashuv davrida bag‘rikenglik tamoyilining ahamiyati	269
Abdurashid Ahmadov. Xristianlik va islom dinlarida ekologiyaga munosabat	272

Dilnoraxon Marufjonova. Dinlararo bag‘rikenglik – jamiyat barqarorligi garovi	276
Muhammadali Ma‘rufjonov. Konfessiyalararo muloqot va diniy bag‘rikenglik – jamiyat barqarorligi kafolati.....	280
A‘zamjon Begmamatov. Diniy bag‘rikenglik – azal-azaldan me‘ros tushuncha	283
Zilola Toirova. Globallashuv sharoitida konfessiyalararo muloqot ahamiyati va uning uslubiy masalalari.....	288
Dilshod Ismailov. Shaxs ma‘naviy kamolotida axloqiy qadriyatlar va diniy e‘tiqod uyg‘unligi.....	293
Nozimaxon Agzamova. Pravoslavlik va protestantlik yo‘nalishlarida pasxa bayrami o‘tkazilishining o‘xshash va farqli jihatlari	299
Mahsuma Shaxavutdinova. Diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik – o‘zbek xalqining o‘ziga xos qadriyati	302
Abdulxamid Abdulxamidov. Turkiy xalqlarda diniy bag‘rikenglik	305
Abduvahob To‘xtanazarov. Vahhobiylik firqasi radikal g‘oyalariga hanafiy olimlarining raddiylari	309
Raxmatullo Oltinboyev. Faxriddin Roziy ijodida bag‘rikenglik	313
Shaxrizoda Usmonaliyeva. Zardushtiylikda urf-odat va marosimlar	317
Diyora Kenjayeva. Malakka sultonligi shakllanishidagi ijtimoiy-siyosiy omillar.....	320
Anusha Safarova. Bag‘rikenglik – jamiyat barqarorligi asosi sifatida.....	324
Nasibabonu Bobojonova. Qadimgi Arabiston aholisi diniy tasavvurlari.....	327
Muhammadnur Murodxonov. Millatlararo va diniy bag‘rikenglik – samarali hamkorlikning muhim omili	330
Muslima Jamolova. Markaziy Osiyo xalqlari hayotidagi ibtidoiy diniy tasavvur belgilari.....	332